

2018 yilning yanvar-may oylarida Qashqadaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **5337,4 mlrd.so'mni** tashkil etdi.
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish **855,3 mlrd.so'mni** tashkil etdi.
- Iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi - **16,0 %**
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **17,8 %**

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2018 yilning yanvar-may oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 5337,4 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 110,1 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'shishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishslash) sanoatida ishlab chiqarish hajmining 10,6 % ga, tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishslashning - 7,1 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning 10,7 % ga va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning – 307,7 % ga o'sishi hisoblanadi.


2018 yilning yanvar - may oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.

Iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 855,3 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2017 yilning yanvar-may oylariga nisbatan 101,4 % ni tashkil etdi, jami sanoatdagi ulushi esa 16,0 % ni tashkil etdi.


2018 yilning yanvar-may oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari




2018 yil yanvar-may oylarida iste'mol tovarlari tarkibida oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish 59,0 foizni va nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish 41,0 foizni tashkil etdi.

**Yanvar-may oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi,
% da**

2017 yil



2018 yil




█ Oziq-ovqat tovarlari
█ Nooziq-ovqat tovarlari

Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Muborak (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 29,2 % ulushini), G'uzor (20,6 %) tumanlari, Qarshi shahri (11,7 %), Nishon (10,0 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.


**2018 yilning yanvar-may oylarida shahar va tumanlarning
jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da**



Shu bilan birga eng kam ulush Chiroqchi (1,3 %), Yakkabog' (1,4 %), Kitob (1,5 %), Shahrisabz (1,8 %) tumanlariga va Shahrisabz shahriga (2,1 %) to'g'ri keladi.


Sanoat mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha Qarshi tumani (2017 yilning yanvar-may oylariga nisbatan 203,9 % ga), Mirishkor (132,4 % ga), Dexkonobod (114,4 % ga), Koson (114,4 % ga) tumanlarida va Qarshi shahrida (117,5 % ga) sezilarli darajada ishlab higarish hajmining oshishi ta'minlandi.

2018 yilning yanvar-may oylarida hududlarda sanoat ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'atlari
(o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan, % da)



Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tabaqlanishi tahlili Muborak tumanida (18746,4 ming so'm), G'uzor tumanida (5597,8 ming so'm), Nishon tumanida (3690,2 ming so'm) va Qarshi shahrida (2325,0 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (1692,2 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

2018 yilning yanvar-may oylarida hududlarda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari va iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi, ming so'mda




Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi.

Kichik tadbirdorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,3 % ga oshishini ta'minladi, o'z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 17,8 % tashkil etmoqda.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Kitob tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Yakkabog' tumanida (83,6 %), Chiroqchi tumanida (78,1 %), Shaxrisabz tumanida (62,3) Qarshi (54,4%) va Shaxrisabz (55,9 %) shaharlarda kuzatildi. Shu bilan birga, eng kichkina ulush Muborak tumanida (1,2 %), G'uzor tumanida (1,9 %), Nishon tumanida (4,2 %) va Dehqonobod tumanida (9,5 %) kuzatildi.

2018 yilning yanvar-may oylarida hududlar bo'yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda ulushi, % da



Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini.

Bugungi kunda viloyatda 2 mingdan ziyod sanoat korxonalarini faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 489 tasi Qarshi shahrida, 320 tasi Kitob tumanida, 233 tasi Shahrисabz shahrida, 203 tasi Yakkabog' tumanida, 172 tasi Qarshi tumanida, 139 tasi Chiroqchi tumanida, 135 tasi Qamashi tumanida, 102 tasi Shahrисabz tumanida, 121 tasi Koson tumanida, 86 tasi Guzor tumanida, 61 tasi Kasbi tumani, 48 tasi Muborak tumani, 51 tasi Nishon tumanida, 40 tasi Dehqonobod tumanida va 46 tasi Mirishkor tumanlarida joylashgan.

2018 yil 1 iyun holatiga faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini soni

